

# INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARI BO'YICHA UMUMIY TAHLIL

**Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 2-kurs talabasi Tel: +998*

*(88) 074-17-45 e-pochta : [sevinchbonu487sv@gmail.com](mailto:sevinchbonu487sv@gmail.com)*

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1031-moddasida<sup>45</sup> O'zbekistondagi intellektual mulk obyektlari ro'yxati keltirilgan bo'lib, ular quyidagicha:

1) Intellektual faoliyat natijalari:

1. Fan, adabiyot va san'at asarlari;
2. Ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;
3. Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlari va ma'lumotlar bazalari;
4. Ixtirolari, foydali modellar, sanoat namunalari;
5. Seleksiya yutuqlari;
6. Oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab sirlari (nou-xau)

2) Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar

Firma nomlari;

Tovar belgilari;

Geografik ko'rsatkichlar;

Tovar ishlab chiqarilgan joy nomi

3) ushbu kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faolaylatni boshqa natijalari va boshqa vositalari.

Demak, birinchi obyektidan boshlasak, ijodiy faoliyat natijasi hisoblanadigan fan, adabiyot, san'ati asarlari maqsadi, umuman olganda ifodalanish usulidan qat'iy nazar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi. Ya'ni asarlari ijodiy faoliyat natijasi bo'ishi kerak, chunki kundalik so'zlashuvlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydi. Subyekti esa fan, adabiyot, san'at asarlarini ijodiy mehnati bilan yaratgan shaxs muallif hisoblanadi. Ushbu huquq quyidagicha himoya qilinishi mumkin :

aylana ichiga olingan lotincha "S" harfi, mualliflik mutlaq huquqlari sohibining nomi, asar birinchi marta e'lon qilingan yil.

Mualliflik huquqining obyektini hisoblanadigan asarlarni ya'ni fan adabiyot, san'at asarlarini uchunchi shaxslar tomonidan ijro etiladigan holatlarni duch kelishimiz mumkin. Bu esa turdosh huquq deb ataladi, uning obyektlari esa asarning ijrolari, ijroning audivizual

<sup>45</sup> <https://lex.uz/docs/-180552#:~:text=IV%20bo%CA%BBlim.%20Intellektual,aks%20ettiruvchi%20vositalar.>

yozuvlari, radioeshittirish va televizion ko'rsatuvlar ushbu huquq obyektlari hisoblanadi, subyektlari sifatida esa biz mualliflik huquqi obyektlari ijrochilar, asarning ijro yozuvini yaratuvlar, radioeshitgirish va teleko'rsatuvlar va ularni uzatuvchi tashkilotlarni olshimiz mumkin. Ushbu huquq ham o'zining himoya qilish belgilariga ega bo'lib ular : aylanaga olingan "R" harfi, turdosh mutlaq huquqlar egasining ism-sharifi, yozuv birinchi marta e'lon qilingan yil.

EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari. Ushbu obyekt muallif huquqining obyektining obyekt sifatida huquqiy himoya qilinadi: ushbu obyektning o'ziga xos jihatlari uning obyektiv shaklda ifoda etilishi, kompyuter dasturlariga nisbatan huquqlar qonunga muvofiq tarzda vujudga keladi, bekor bo'ladi va boshqalar. Ushbu obyektning huquqiy himoyasi ushbu dasturlar asosida yartilgan g'oyalarga, algoritmlarga. Ya'ni obyektning mazmuniga emas, balki dasturning dasturning obyektiv shakliga tadbiq etiladi.

Navbatdagi obyekt esa ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari hisoblanadi. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasida sanoat mulkining muhofaza obyektlari sifatida aynan tepada keltirilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqalar e'tirof etilgan. Fuqarolik kodeksiga ko'ra ixtiro, foydali model, sanoat namunasi yaratilish fakti bo'yicha emas, maxsus muhofaza qiluvchi hujjat ya'ni patent bilan himoya qilinadi. Ushbu hujjatni olish uchun belgilangan talablar mavjud bo'lib, ushbu talablar „Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida“gi Qonun <sup>46</sup> da mustahkamlangan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi, masalan: ixtiro yangi bo'lishi, ixtirochilik darajasiga ega bo'lishi, va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa unda ixtiro, foydali modellar, sanoat namunasi patent bilan muhofaza qilinishi mumkin. Masalan Yangi deganda biz ixtironing hali daraqqiyot darajasida ma'lum emasligini tushunishimiz mumkin. Shunday obyektlar ham borki biz ularni ixtiro hisoblamaymiz misol uchun, ehm uchun algoritmlar, binolar, hududlarni rejalashtirish loyihalari, chizmalar va boshlar. Foydali modellar uchun ham patent olish uchun shartlar yangi va uni amaliyotda qo'llash mumkin bo'lsa uni patent muhofaza qilishimiz mumkin. Sanoat namunalari esa yangi, o'ziga xos va uni amaliyotda qo'llash mumkin bo'lsa muhofza qilinadi.

Keyingi obyekt esa seleksiya yutuqlari;

O'zi umuman olganda seleksiya yutuqlari deganda nimani tushunamiz?

TDYU jamoasi mutaxassisarlari fikriga ko'ra, Seleksiya yutuqlari bu o'simliklarning yoki hayvonlarning yangi zotining yaratilishi tushuniladi. Seleksiya yutuqlari ba'zi jihatlari bilan ixtiroga ham o'xshab ketadi, masalan: ikkala obyekt ham patent bilan muhofaza qilinadi, ikkala obyekt ham insonga hayvonlar va o'simliklarni rivojlanishini kerakli tomonga yo'naltirishga ta'sir qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda o'ziga yarasha farqli jihatlari ham mavjud, xususan, seleksiya muallifi jonli tabiat ustida o'z ishlarini olib boradi, bundan tashqari, seleksiya yutug'iga erishish nafaqat muallifga balki, iqlimga ham bog'liq, agar u o'zgarsa muallif ko'zlangan natijaga erishmasligi ham mumkin. Seleksiya yutug'i

<sup>46</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-76671>



patent bilan muhofaza qilinishi uchun u quyidagi shartlarga javob berishi kerak, ualar quyidagilar, ya'ni yangi bo'lishi, farq qilishi, turdosh bo'lishi va barqaror bo'lishi kerak, ushbu talablar „Seleksiya yutuqlari to'g'risida“ gi Qonunda<sup>47</sup> keltirilgan bo'lib, agar yutuq ushbu mezonlarga javob bersa, unda patent bilan muhofaza qilinishi mumkin. Agar seleksiya yutuq'i muallifi tomonidan yaratilgan yangi nav va zotga patent berilmasa u intellektual mulk obyekti bo'lmaydi, hamda himoya qilinmaydi.

Oshkora etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari ya'ni (nou-xau)

Bilamizki, oshkora etilmagan axborot deyilganda uchinchi shaxslarga ma'lum qilinmaydigan, maxfiy, sir saqlanuvchi har qanday ma'lumot tushuniladi.

Nou-xau deganda esa fuqaro va yuridik shaxsga faktik monopoliya asosida tegishli bo'ladigan, foydali texnikaviy, tashkiliy yoki boshqa ma'lumotlar tushuniladi. Ushbu oshkora qilinmaydigan ma'lumotlarlar egasi agar ushbu ma'lumotlarni qonunga rioya qilgan holda ega bo'lgan taqdirda uni uchinchi shaxslardan himoya qilish huquqiga ega bo'ladi va ushbu axborotni uning roziligisiz oshkor qilinsa yoki foydalanish maqsadida har qanday usulda to'plansa unda ushbu harakatlar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bundan tashqari oshkora etilmagan axborot egasi ushbu ma'lumotlarning hammasini yoki uning bir qismini boshqa shaxsga litsenziya shartnoma asosida berishi mumkin. Litsenziya asosida ushbu huquqqa ega bo'lgan shaxs, bu bilan bir vaqtda ushbu axborotni boshqa shaxslardan himoya qilish huquqiga ham ega bo'ladi. Garchi litsenziya shartnomasi ma'lum bir muddatga tuzilsada, Fuqarolik kodeksining 1097-moddasi<sup>48</sup> ushbu shartnoma bekor bo'lgandan keyin ham axborotning maxfiyiligini saqlash majburiyati litsenziat zimmasida qolaveradi.

Navbatdagi obyekt esa fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar ya'ni firma nomi, tovar belgilari, geografik ko'rsatkichlar, tovar chiqarilgan joy nomi va boshqalar.

Bilamizki, yuridik shaxslar o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomga ega bo'ladi. „Firma nomlari to'g'risida“ gi Qonunga<sup>49</sup> muvofiq firma nomiga bo'lgan mutlaq huquq bu mutalq huquq fuqarolik kodeksining 1098-moddasida<sup>50</sup> belgilab qo'yilgan bo'lib, u yuridik shaxs tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin yuzaga kelishi belgilab qo'yilgan. Yuridik shaxsning nomi uning ta'sis hujjatida keltirilgan bo'lishi kerak. Bu mutlaq huquq bo'lganligi uchun yuridik shaxs firma nomidan g'ayriqonuniy foydalanayotgan shaxsga nisbatan undan foydalanishni to'xtashini va yetkazilgan zararni qonunda belgilangan tartibda bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega. Firma nomida tarixiy yoki O'zbekiston Respublikasi mashhuq shaxslarning to'liq yoki qisqartirilgan ismi ruxsatsiz keltirilmasligi, firma noma tovar haqida iste'molchini chalg'ituvchi belgilar va boshqalar ko'rsatilishi

<sup>47</sup> <https://lex.uz/docs/-69237>

<sup>48</sup> <https://lex.uz/docs/-180552#:~:text=1097%2Dmodda.%20Oshkor,litsenziatning%20zimmasida%20bo%CA%BBladi.>

<sup>49</sup> <https://www.lex.uz/docs/-1055517>

<sup>50</sup> <https://lex.uz/docs/-180552#:~:text=1098%2Dmodda.%20Firma,olinishi%20mumkin%20emas.>

mumkin emas. Firmaning nomiga bo'lgan huquq u ro'yxatdan o'tkazilgandan boshlab, muddatsiz hisoblanadi. Ushbu huquqni begonalashtirish ham tegishli organlarda qayd etilgandan keyin rasmiylashtiriladi.

Tovar belgisi esa bu jismoniy yoki yuridik shaxslarning o'zlarining tovarlarini yoki xizmatlarini boshqa shaxslarning tovar yoki xizmatlaridan farqlash uchun foydalanadigan belgilari tushuniladi. Tovar beqlgisi sifatida gerb, bayroqlar va boshqa shu kabi ramziy belgilarni, har xil tamg'alarni, jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan belgilarni va boshqalarni ro'yxatga olinishi mumkin emas. Tovar belgisini ham himoya qilishning asosiy sharti uning xuddi boshqa obyektlarni himoya qilish kabi ro'yxatdan o'tkazilishi hisoblanadi. Tovar belgisi davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgandan va belgilangan boj to'langanligi haqida hujjat olinganidan keyin uch oy ichida Intellektual mulk agentligi ushbu tovar belgiga nisbatan guvohnoma beradi. Tovar belgisiga bo'lgan huquq ham shartnoma asosida boshqa manfaatdor shaxslarga o'tkazilishi mumkin. Bu shartnoma haq baravariga ham, tekinga ham tuzilishi mumkin. Tovar belgisidan noqonuniy foydalanayotgan shaxs, darhol ushbu harakatni to'xtatishi bilan birgalikda, tayyorlab qo'yilgan tovar belgisi tasvirlarini yoki uning idishi va o'rovini yo'qotishi shart.

Tovar ishlab chiqarilgan joy deganda tovar kelib chiqqan joy nomi tushunilib, tovar chiqarilgan joy nomi sifatida geografik obyekt nomi ishlatilishi mumkin. Tovar ishlab chiqarilgan joy nomi uni ro'yxatga olish asosida muhofaza qilinadi, qachonki ba'zi talablarga rioya qilinsa, xususan, ma'lum bir joy o'ziga xosliklarga ega bo'lishi, bu o'ziga xoslik ushbu hudda ishlab chiqarilgan tovarlarning sifati uchun asosiy omil bo'lishi va boshqalar. Agar tovar ishlab chiqarilgan joy nomi iste'molchilarni chalg'itadigan bo'lsa unda u ro'yxatdan o'tkazilmaydi. Tovar ishlab chiqarilgan joy nomi albatta O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkaziladi, ro'yxatga olingandan keyin esa bu bo'yicha guvohnoma beriladi. Agar ushbu huquq buziladigan bo'lsa, ushbu huquqqa ega bo'lgan shaxs joy nomidan qonunga xilof ravishda foydalangan shaxsdan yetkazilgan zararlarning to'liq qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.

Xulosa qilib aytganda, Fuqarolik kodeksining 1031-moddasiga<sup>51</sup> ko'ra intellektual mulk obyektlari turli xil bo'lishiga qaramasdan, ularning har biri teng ravishda qonun bilan himoya qilinadi. Olim Rahmonqulovning aytishicha, intellektual mulk obyektlari nomoddiy boyliklar hisoblanib, ularning moddiy ashyolardan farqli jihati bir vaqtning o'zida cheksiz doiradagi shaxsla tomonidan foydalanilishi mumkin, intellektual mulk obyektlarining o'ziga xos jihati ham shu yerda. Yana bir mashhur olim Venediktov esa intellektual mulk obyektlarini boshqa shaxslarga o'tkazish masalalarida ushbu obyektlarni oldi-sotdi shartnomasining predmeti sifatida o'rgangan. Omon Oqyulov esa ko'proq intellektual mulkning mutlaq xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish FK ning tegishli moddasida belgilangan tartibdan tashqari, mutlaq huquqlarni himoya qilish yana mutlaq huquq qaysi moddiy obyekt bilan buzilgan bo'lsa o'sha moddiy

<sup>51</sup> <https://lex.uz/docs/-180552#:~:text=1031%2Dmodda.%20Intellektual%20mul%20obyektlari>

obyektlarni va buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo'yish, yo'l qo'yilgan buzish haqidagi ma'lumotni majburiy suratda e'lon qilibunga buzilgan huquq kimga tegishliligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali va qonunda belgilangan boshqa usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

<https://lex.uz/docs/180552>

Fuqarolik kodeksi maxsus qismiga sharh

<https://library-tsul.uz/uzbekiston-respublikasining-fu-arolik-kodeksiga-shar-3-zhild-2013/>

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

<https://lex.uz/uz/docs/-76671>

<https://lex.uz/docs/-69237>

<https://www.lex.uz/docs/-1055517>